TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 10-fevral | 21-10-212-Q/25 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi 454-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 13-10-0-Q/25-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 454-son qarori hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi13-10-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlashda, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- ва 10-moddalariga muvofiq **qaror qilaman**:

1. Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 8- yanvardagi13-10-0-Q/25-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yilda tuman hududida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha manzilli ro‘yxat ilovaga muvofiq tasdiqdansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi 454-son qarori bilan Dastur doirasida zamonaviy standartlarni keng joriy qilish, shu jumladan, loyihalashtirilayotgan binolarda energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan, ekologik toza va energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan qurilish materiallaridan foydalanish inobatga olinmagan holatlarda yangi obyektlar bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari ekspertizadan o‘tkazilmasligi belgilanganligi inobatga olinsin.

Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi mazkur bandda keltirilgan talablarga rioya etilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi 454-son qarori bilan:

a) Vazirlar Mahkamasi Rayosati tomonidan Dasturning asosiy parametrlariga tasdiqdangan loyihaoldi va loyiha hujjatlari hamda moliyalashtirish manbalari mavjud bo‘lgan qo‘shimcha loyihalar (obyektlar)

kiritilishini, amalga oshirilmagan loyihalar (obyektlar) chiqarib tashlanishini, shuningdek, kapital qo‘yilmalarning buyurtmachilar (tashabbuskorlar) o‘rtasida qayta taqsimlanishini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkinligi;

Bunda dastlabki qiymati 50,0 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan yangidan boshlanadigan qo‘shimcha loyihalar (obyektlar) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Dasturga kiritilishi belgilanganligi;

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

budjet tizimining byudjetlari hisobidan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari bo‘yicha o‘tkazilgan davlat xaridlariga asosan, qurilish muddati uch oydan kam bo‘lgan obyektlarga birinchi oyda obyekt qiymatining 30 foizi miqdorida avans mablag‘lari ajratiladi, keyingi to‘lovlar belgilangan tartibda moliyalashtirilishi;

v) 2026-yil 1-yanvarga qadar sinov tariqasida:

loyiha-smeta hujjatlarining qiymati bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq bo‘lgan loyihalar (obyektlar) bo‘yicha: hajm, texnik va smeta qismi (narx qismidan tashqari) - Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi” DM tomonidan;

tovar, ish va xizmatlarning narx qismi - Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi;

bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravarigacha bo‘lgan loyihalar (obyektlar) bo‘yicha shaharsozlik hujjatlari Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi” DM tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi,

Bunda:

loyiha (loyihaoldi) hujjatlarining narx qismini ekspertizadan o‘tkazishda qurilish resurslari milliy klassifikatoridan foydalanilishi, resurslar (tovar va xizmatlar) klassifikatorda mavjud bo‘lmagan taqdirda, davlat xaridlari platformalarida ushbu resurslar (tovar va xizmatlar) bo‘yicha amalga oshirilgan joriy yil savdo natijalari ma’lumotlari keyingi yil uchun indeksatsiyani ko‘zda tutgan holda qo‘llanishi belgilansin;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi 43-sonli qaroriga asosan, moliyalashtirish manbai aniq bo‘lmaganda, pudrat (loyiha) tashkilotlari tanlov (tender) o‘tkazilmasdan tanlab olinganda (“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) xarajatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarish taqiqlangani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Buyurtmachi tashkilotlar belgilangan tartibda:

viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasiga arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berish hamda loyihasmeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyihachi tashkilot

bilan
shartnoma tuzish;

loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan korxonalar bilan yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish;

tegishli hududiy nazorat inspeksiyatsidan qurilish ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnoma olish;

mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki ularning muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirish hamda qurilish-ta’mirlash ishlari yakunlangandan so‘ng foydalanishga topshirish;

bir hafta muddatda moliyalashtirish hajmlarini qurilish-montaj ishlarining kalendar jadvallari bilan uzviy bog‘liq holda 2025-yil uchun yildan-yilga o‘tuvchi qurilish obyektlarining manzilli ro‘yxatini belgilangan tartibda tasdiqlash;

ikki oy muddatda 2025-yilda yangidan boshlanadigan loyihalar (obyektlar) bo‘yicha tasdiqdangan loyihaoldi va loyiha hujjatlari asosida belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini yakunlash va tanlov (tender) g‘oliblari bilan
pudrat shartnomalarini tuzish choralarini ko‘rish;

xarid qilish tartib-taomillari yakunlanganidan so‘ng bir hafta muddatda 2025-yilda yangidan boshlanadigan loyihalarning (obyektlarning) manzilli ro‘yxatlarini belgilangan tartibda tasdiqlash;

2025-yil 15-fevralga qadar dasturning asosiy parametrlarini bajarish, shu jumladan, loyihalar (obyektlar) bo‘yicha kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirishning prognoz ko‘rsatkichlarini choraklar kesimida tasdiqlab, Iqdisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish vazifalari yuklanganligi inobatga olinsin.

Bunda:

2025-yilning birinchi yarim yilligida barcha loyihalar (obyektlar) bo‘yicha yillik rejalashtirilgan o‘zlashtirish hajmlarining kamida 40 foizini, shu jumladan, yildan-yilga o‘tuvchi loyihalar (obyektlar) bo‘yicha kamida 50 foizini bajarish;

2025-yilda ishga tushiriladigan ta’lim muassasalari obyektlarini - 15-avgustga qadar, issiqlik ta’minoti obyektlarini – 1-oktabrga qadar, qolgan (tibbiy-ijtimoiy, ichimlik suv ta’minoti obyektlari, avtomobil yo‘llari va boshqa) obyektlarni – 1-dekabrga qadar foydalanishga topshirish;

har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning 3-sanasiga qadar Dasturdagi har bir loyihaning (obyektning) prognoz ko‘rsatkichi va asosiy parametrlari bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni viloyat hokimligiga taqdim etib borish nazarda tutilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Mirsagatov), buyurtmachi tashkilot tomonidan tumanga biriktirilgan vakilari bilan Dastur asosiy parametrlari, maqsadli ko‘rsatkichlari o‘z vaqtida, sifatli va to‘liq, amalga oshirilishi, ajratilgan mablag‘lar maqsadli hamda samarali sarflanishini ta’minlash uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

7. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Dastur doirasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash bo‘yicha buyurtmachi vazifasini Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi tomonidan davom ettirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2025-yil 10-fevraldagi
21-10-212-Q/25-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi PQ-454-son qarori asosida 2025 yilda Toshkent tumanida quriladigan obyektlarning
MANZILLI RO‘YXATI

№	Loyiha manzili va nomi	Amalga oshirish muddati	O‘lchov birligi	Loyiha quvvati	2025 yilda topshirila digan quvvat	shu jumladan:			2025 yil uchun limit, mln.so‘m
						yangi qurilish	rekonstruk siya	mukammal ta’mir	
1	Iftixor MFY 11-sonli maktab	2025	o‘quv o‘rin	680	680			680	6 800,0
2	Yangi ixtisoslashtirilgan maktab qurish	2025	o‘quv o‘rin	336 1 sport zal	336 1 sport zal	336 1 sport zal			19 000,0
3	Ayriota MFY 30-bog‘cha	2025	o‘rin	150	150		150		4 500,0
4	Qorabo‘rik MFY A.Umarov OShP	2025	qatnov	50	50			50	1 400,0
5	4R4 “Toshkent sh.Keles sh.-Qozoqkentsoy q.-M39 avtomobil yo‘li 0-12 km qismini rekonstruksiya qilish	2020-2026	km	12					2 000,0
6	4R4a “4R4 “Toshkent sh. — Keles sh. — Qozoqkentsoy q. — M39 avtoyo‘li yo‘lining 0-6 km qismini rekonstruksiya qilish	2020-2025	km	6	6		6		5 000,0
Jami:									**38 700,0**